

## QOBILIYAT, ISTE'DOD VA TALANT KABI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR TALABA SHAXSINI NAMOYON ETUVCHI MUHIM OMIL SIFATIDA

**O.I.Yadgarova**

*SamDCHTI "Pedagogika, psixologiya va jismoniy madaniyat" kafedrasida dotsenti.*

**Tohirova Farzona Egamberdi qizi**

*SamDChTI Ingliz tili fakulteti I-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** "Qobiliyat, iste'dod va talant kabi psixologik xususiyatlar talaba shaxsini nomoyon etuvchi muhim omil sifatida" deb nomlangan maqolamizda biz qobiliyat, iste'dod, talant kabi tushunchalarning asosiy ilmiy mohiyatini qolaversa, ularning har biri birgalikda talaba shaxsini namoyon etishda, uning rivojlanib muvaffaqiyatga erishishida qanday ahamiyat kasb etishini yoritib berishga harakat qilamiz. Umuman olganda, jamiyatda har bir insonning shaxs sifatida shakllanishiga turtki bo'ladigan bu tushunchalarni manbalar asosida tahlil qilamiz.

**Kalit so'zlar:** qobiliyat, iste'dod, talant, shaxs, ko'nikma, malaka, layoqat, tug'ma iste'dod, iqtidorni aniqlash usullari.

Biz bilamizki, ko'chilik odamlar inson biror bir qobiliyat bilan tug'iladi deb o'ylashadi. Lekin, inson layoqat bilan bu yorug' olamga keladi. Ana shu layoqat asta-sekinlik bilan rivojlanib qobiliyatga aylanadi. Endi qobiliyatning paydo bo'lishiga sabab bo'luvchi layoqat tushunchasiga ta'rif beradigan bo'lsak, layoqat – insonning anatomik-fiziologik xususiyati bo'lib, qobiliyatlar rivojining asosidir. Layoqat – qobiliyatning nasliy mustahkamlangan omili, qobiliyat rivojlanishining tabiiy zamini. Muayyan sharoit mavjud bo'lganda layoqat qobiliyatning shakllanishi va rivojlanishini ta'minlaydi. Asab analizatorlarining ayrim tug'ma xususiyatlari layoqatni tashkil etadi. Asab tizimining tipologik xususiyatlari xam layoqat sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Muvaqqat nerv bog'lanishlarining tarkib topish tezligi, mustahkamligi, diqqatni to'plash kuchi, asab tizimining chidamliligi, aqliy ish qobiliyati ham layoqatga bog'liq hisoblanadi. Layoqat inson rivojlanishining turli davrlarida ham namoyon bo'lishi mumkin.[1] Demak, layoqat shaxsning maxsus qobiliyatlari tarkib topishi va rivojlanishi uchun asos bo'ladigan anatomik-fiziologik imkoniyatdir. Layoqat insonning, shaxsning ma'naviyat va ma'rifatga, tabiatdagi betakrorlikni his etishga moyillik hamdir. Layoqat qancha kuchli bo'lsa, insondagi burch va mas'uliyat tuyg'usi ham shunchalik qat'iy bo'ladi. Shu asosda unda yuksak ma'naviyat hamda ma'rifat shakllanadi. Qobiliyat — insonning individual salohiyati, imkoniyatlari. Qobiliyat bilimdan keskin farqlanadi, bilim mutolaa natijasi hisoblanadi, Qobiliyat

shaxsning psixologik va fiziologik tuzilishining xususiyati sanaladi. Qobiliyat ko‘nikma, malakadan farq qiladi. Qobiliyat insonga berilgan in‘om sifatida qaraladi. Aksariyat ilmiy manbalarda mohirlik bilan qobiliyat aynanlashtiriladi. Qobiliyat inson tomonidan ko‘nikma va malakalarning egallanishi jarayonida takomillashib boradi. Har qanday qobiliyat turi shaxsga tegishli murakkab psixologik tushunchadan tashkil topgan bo‘lib, u faoliyatning talablariga mutanosib xususiyatlar tizimini o‘z ichiga oladi. Shuning uchun qobiliyat deganda birorta xususiyatning o‘zini emas, balki shaxs faoliyatining talablariga javob bera oladigan va shu faoliyatda yuqori ko‘rsatkichlarga erishishni ta‘minlashga imkoniyat beradigan xususiyatlar sintezini tushunmoq lozim. Barcha qobiliyat uchun tayanch xususiyat — kuzatuvchanlikda, ya‘ni insonni fahmlash, obyektidan u yoki bu alomatlarni ko‘ra bilish, ajrata olish ko‘nikmasidir. Qobiliyatning yetakchi xususiyatlaridan biri — narsa va hodisalar mohiyatini ijodiy tasavvur qilishdir. U shaxsning shakllanishi va rivojlanishi natijasi bo‘lishi bilan birga, tabiiy manbaga ham ega. [2]

Garchi qobiliyatlarning rivoji har turli odamlarda mutlaqo bir xil bo‘lmagan tabiiy shart-sharoitlarga bog‘liq bo‘lsa ham, yuqorida ko‘rib o‘tilgan iste‘dod nishonalari va qobiliyatlar o‘rtasidagi nisbat, qobiliyatlar shunchaki tabiat in‘omi emas, balki kishilik tarixining mahsuli ekanligini ko‘rsatadi. Agar hayvonlarda oldingi avlod yutuqlarining keyingi avlodga o‘tkazib berilishi asosan organizmning irsiy morfologik o‘zgarishlari orqali amalga oshsa, insonda bu ijtimoiy-tarixiy yo‘l bilan, ya‘ni mehnat quroli, til, san‘at asarlari va shu kabilar bilan amalga oshadi.

Kishi o‘zida muayyan faoliyatga qobiliyat bor yoki yo‘qligini sezish yoki sezmasligini bildiradigan omil ta‘lim metodikasi hisoblanadi. Ta‘lim metodikasi qaerda ojiz bo‘lsa, o‘sha erda qobiliyatlarning tug‘ma ekanligi haqidagi gaplar paydo bo‘ladi. O‘z-o‘zidan ma‘lumki, metodika doim takomillashib boradi, bu esa «tug‘ma qobiliyatlar» doirasini torayib borishiga olib keladi. [3]

Bundan tashqari, nihoyatda zo‘r ijodiy qobiliyat, layoqat hisoblangan iste‘dod ham talaba shaxsini umuman olganda, shaxsni namoyon etuvchi psixologik tushunchadir. Bu arab tilida, tayyorgarlik, tayyorlik; moyillik; qobiliyat; degan ma‘nolarni ifodalaydi. Iste‘dod, talant — nihoyatda zo‘r qobiliyat, biror sohada yuksak darajadagi layoqat. U idrok, tasavvur, tafakkur, xotira, kuzatuvchanlik benihoya o‘sganligida, voqeahodisalarning yangi qirralarini, ularning zamiridagi murakkab aloqadorlikni kashf etishda ko‘rinadi. [4]

Iste‘dod insonning ma‘lum faoliyati turida o‘zini namoyon etadi. Bilim, ko‘nikma, malaka, tajribalar iste‘dod rivojida katta rol o‘ynaydi. Qobiliyat yoki layoqat o‘shiga ijtimoiy sharoit yaratilganda, uni tarbiyalab kamolga yetkazilgandagina iste‘dod yuzaga chiqadi, iste‘dodga shaxsning mehnatsevarligi ham qo‘shilgan taqdirda yangilik va kashfiyot paydo bo‘ladi desak hech ham mubolag‘a bo‘lmaydi. Bundan tashqari, iste‘dod haqida ko‘plab fikrlar mavjud:

1. Iste'dod eng avvalo mashaqqatli mehnatdir — Chexov.

2. Har qanday muvaffaqiyat 99 foiz mehnat va 1 foiz iste'dodga asoslanadi.  
Intizomsiz ishlash mumkin emas — Aleksandr Zapesotskiy.

3. Muvaffaqiyatli odamni iste'dodli odamdan faqat bir narsa ajratib turadi — mehnatsevarlik — Stiven King.

Iste'dodning asosiy belgilari quyidagilar:

- a) muvaffaqiyatni ta'minlash;
- b) faoliyatni mustaqil bajarish;
- c) originallik unsurining mavjudligi;
- d) qobiliyat hamda iste'dodlar yig'indisidan iborat ekanligi;
- e) individual-psixologik xususiyatga egaligi;
- f) ijtimoiy turmushni o'zgartiruvchi, yaratuvchi imkoniyatga egaligi kabilar.

Psixologik ma'lumotlarni umumlashtirgan holda alohida ta'kidlab o'tish iste'dod tuzilishini oson tushunish imkoniyatini yaratadi, iste'dod shaxs psixik xislatlarining shunday murakkab birikmasidir.[5]

**Xulosa:** Qobiliyat va iste'dod insonning hayotidagi eng muhim individual-psixologik xususiyatlardan biri hisoblanadi. Ushbu xususiyatlar talabani individual rivojlanishida, o'qish jarayonida muvaffaqiyatga erishishida va jamiyatda faol bo'lishida katta rol o'ynaydi. Qobiliyat va iste'dodni aniqlash va ularga mos ravishda ta'lim jarayonini tashkil etish, talabani to'liq potentsialini ro'yobga chiqarishga yordam beradi. Talantlar esa, talabani o'ziga xos yondashuvi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, talaba shaxsining rivojlanishida bu omillar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ta'lim muassasalarining o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashi va ularga mos sharoitlar yaratishi kerak.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://oyina.uz/uz/teahouse/1788>.
2. "Vikipediya" <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Qobiliyat>
3. E.G'oziyev. Umumiy psixologiya. Toshkent 2010.
4. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/>
5. Zufarova M.A. Umumiy psixologiya. Toshkent, 2018.